



O'ZBEKISTON VA TURKIYA O'RTASIDAGI DIPLOMATIK ALOQALARNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Akbarov Bunyodjon Ilyosjon o'g'li

Mustaqil tadqiqotchi ilyosjonovmuhammadbilol@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi diplomatik munosabatlar qardoshlik rishtalari va tarixiy yaqinlikka asoslangan holda mustaqillikdan boshlab izchil rivojlangani tahlil qilinib, mustaqillikni e'tirof etish, hamkorlikning oltin davri, turg'unlik va strategik sheriklik bosqichlari misollarida yoritilgan. Siyosiy dialog, shartnomalar bazasi, iqtisodiy loyihalar, madaniy almashinuv va Turkiy Davlatlar Tashkiloti doirasidagi integratsiya orqali aloqalar yangi bosqichga chiqqanligi, bu esa mintaqaviy barqarorlik va innovatsion hamkorlikka hissa qo'shayotganligi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Diplomatiik munosabatlari, qardoshlik rishtalari, mustaqillikni e'tirof etish, diplomatik aloqalar o'rnatish, shartnomalar bazasi, strategik sheriklik, iqtisodiy hamkorlik, madaniy almashinuv, Turkiy Davlatlar Tashkiloti, davlat tashriflari, savdo-iqtisodiy loyihalar, mintaqaviy integratsiya, tiklanish bosqichi.

Аннотация: В данной статье анализируется последовательное развитие дипломатических отношений между Узбекистаном и Турцией с момента обретения независимости, основанное на братских узах и исторической близости, освещается на примерах признания независимости, золотого века сотрудничества, стагнации и этапов стратегического партнерства. Было отмечено, что отношения вышли на новый уровень благодаря политическому диалогу, договорной базе, экономическим проектам, культурному обмену и интеграции в рамках Организации тюркских государств, что способствует региональной стабильности и инновационному сотрудничеству.

Ключевые слова: Дипломатические отношения, братские узы, признание независимости, установление дипломатических отношений, договорная база, стратегическое партнерство, экономическое сотрудничество, культурный обмен, Организация тюркских государств, государственные визиты, торгово-экономические проекты, региональная интеграция, этап восстановления.

Abstract: This article analyzes the consistent development of diplomatic relations between Uzbekistan and Turkey since independence, based on fraternal ties and historical proximity, highlighting the recognition of independence, the golden age of cooperation, stagnation, and stages of strategic partnership. It was noted that relations have reached a new level through political dialogue, a treaty base, economic projects, cultural exchange, and integration within the framework of the Organization of Turkic States, which contributes to regional stability and innovative cooperation.

Keywords: Diplomatic relations, fraternal ties, recognition of independence, establishment of diplomatic relations, treaty base, strategic partnership, economic



cooperation, cultural exchange, Organization of Turkic States, state visits, trade and economic projects, regional integration, reconstruction stage.

KIRISH

O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi diplomatik munosabatlar ikki qardosh xalqning ming yillik tarixiy, madaniy, til va din yaqinligiga asoslanadi. Markaziy Osiyo va Kichik Osiyoda shakllangan buyuk sivilizatsiyalar - Buyuk Saljuqiylar imperiyasi, Amir Temur davlati va Usmonli imperiyasi davrlaridan boshlab, bu munosabatlar do'stlik, o'zaro hurmat va hamkorlik tamoyillariga qurilgan. Turkiya O'zbekiston suverenitetini birinchi bo'lib tan olgan davlatlardan biri bo'ldi va diplomatik aloqalar o'rnatildi. Bu voqea nafaqat ikki davlat o'rtasidagi rasmiy munosabatlarning boshlanishi, balki turkiy dunyoning birligini mustahkamlash yo'lidagi muhim qadam edi. O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham buni ta'kidlab "Buyuk Ipak yo'li chorrahasida joylashgan mamlakatlarimiz qadimdan Osiyo, Yevropa va Afrika o'rtasidagi savdo yo'llarining asosiy bog'lovchi tugunlari sifatida shuhrat qozongan. Bugun qardosh turk xalqi O'zbekistondan minglab kilometr uzoqda istiqomat qilishiga qaramay, bizni tillar va ma'naviy qadriyatlarning yaqinligi chambarchas bog'lab turadi. Bizning tarixiy ildizlarimiz bir, umid va intilishlarimiz mushtarak¹³" degandi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida Turkiya O'zbekistonga "turk modeli" asosida iqtisodiy va siyosiy islohotlarni olib borishda faol yordam berdi. Bu davrda madaniy aloqalar, ta'lim almashinuvi va iqtisodiy hamkorlik asosiy yo'nalish bo'ldi. Biroq, 1999-yildan keyin siyosiy kelishmovchiliklar tufayli munosabatlarda turg'unlik davri boshlandi. 2016-yildan boshlab, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ochiq siyosati va Turkiya rahbariyati bilan faol dialogi tufayli aloqalar yangi bosqichga chiqdi. 2022-yilda munosabatlar "keng qamrovli strategik sheriklik" darajasiga ko'tarildi. 2024-yil yakuniga ko'ra, ikki davlat o'rtasida 60 dan ortiq shartnoma va bitim mavjud bo'lib, savdo hajmi 2,93 milliard dollarga yetdi¹⁴. Bugungi kunda hamkorlik nafaqat ikki tomonlama, balki Turkiy Davlatlar Tashkiloti doirasida ham rivojlanmoqda.

Asosiy qism

O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi diplomatik aloqalar mustaqillik e'lon qilingan paytdan boshlab izchil rivojlanib, bir necha muhim bosqichdan o'tdi. Bu jarayon nafaqat ikki davlat rahbarlarining siyosiy irodasiga, balki xalqaro sharoitlar, iqtisodiy ehtiyojlar va mintaqaviy integratsiya tendensiyalariga ham bog'liq bo'ldi. Ikki davlat hamkorlig tarixi bir necha davrlarga bo'linadi.

Birinchi bosqich: Mustaqillikni e'tirof etish va diplomatik aloqalarni o'rnatish (1991–1992 yillar) O'zbekiston Respublikasi 1991-yil 31-avgustda mustaqilligini e'lon qilgach, xalqaro maydonda suverenitetini tan olish jarayoni boshlandi. Turkiya bu

¹³ O'zbekiston va Turkiya munosabatlari keng qamrovli strategik sheriklik darajasiga ko'tarildi. O'zbekiston Prezidentining matbuot xizmati. <https://president.uz/en/lists/view/5090>

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasi (2024- yil yanvar-dekabr). O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika agentligi. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/59511-o-zbekiston-respublikasi-tashqi-savdo-aylanmasi-2024-yil-yanvar-noyabr>



jarayonda yetakchi rol o'ynadi va 1991-yil 16-dekabrda O'zbekistonni rasman e'tirof etgan birinchi davlat bo'ldi. Bu voqea nafaqat siyosiy ahamiyatga ega edi, balki ikki xalqning qardoshligi va tarixiy yaqinligining ramzi sifatida qabul qilindi. Aynan shuni ta'kidlar ekan Turkiya rahbari Rejep Tayyip Erdog'anning O'zbekistonga 2022-yilgi tashrifida "Uzoq davom etgan sog'inch va ayriliqdan keyin o'z davlatiga va bayrog'iga ega bo'lgan O'zbekiston mustaqilligini tan olgan ilk davlat bo'lganimizdan faxrlanamiz. Toshkent shahrida birinchi elchixonasi Turkiya tomonidan ochilganida Sovet Ittifoqi davrida Tashqi ishlar vazirligi joylashgan binoning Turkiya elchixonasiga berilganligini O'zbekistonning ham Turkiyaga alohida mehrining bir nishonasi deb bilamiz¹⁵." deb ta'kidlagan edi.

1991-yil 19-dekabrda Anqarada "O'zbekiston Respublikasi va Turkiya Respublikasi o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatish to'g'risidagi Protokol" imzolandi. Ushbu hujjat ikki davlat o'rtasidagi rasmiy munosabatlarning huquqiy asosini yaratdi va Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavi, Xelsinki Yakuniy Akti prinsiplari hamda xalqaro huquq normalariga asoslandi. Protokolda quyidagi asosiy tamoyillar belgilandi:

- Davlatlar suvereniteti va hududiy yaxlitligiga o'zaro hurmat;
- Ichki ishlariga aralashmaslik;
- Tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash;
- Iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy hamkorlikni rivojlantirish.

1992-yil 4-fevralda Toshkentda Turkiya Respublikasining elchixonasi rasman ochildi, bu O'zbekistondagi birinchi xorijiy diplomatik vakolatxonalardan biri edi. Shu yilning mart oyida esa O'zbekistonning Anqaradagi elchixonasi faoliyat boshladi. Elchixonalar ochilishi bilan birga, konsullik xizmatlari yo'lga qo'yildi, 1992-yil iyun oyida Istanbulda O'zbekiston Bosh konsulligi ochildi.

Bu bosqichda Turkiya O'zbekistonga iqtisodiy va texnik yordam ko'rsatishni boshladi. Xususan, 1992-yil mart oyida Turkiya Bosh vaziri Suleyman Demirel O'zbekistonga rasmiy tashrif buyurdi va "Iqtisodiy hamkorlik to'g'risidagi bitim" imzolandi. Ushbu yilda Turkiya TIKa (Turkiya Hamkorlik va Muvofiqlashtirish Agentligi) orqali O'zbekistonga texnik yordam ko'rsatishni boshladi va 100 million dollarlik kredit liniyasi ochildi. 1992-yil oxiriga kelib Turkiya O'zbekistonga 500 nafar talaba uchun stipendiya ajratdi, bu ta'lim hamkorligining dastlabki qadami bo'ldi¹⁶.

Shu tariqa, 1991-1992 yillar diplomatik aloqalarning poydevori qo'yilgan davr bo'lib, unda siyosiy e'tirof, huquqiy asos va amaliy hamkorlik bir vaqtda amalga oshirildi. Bu bosqich ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning kelajakdagi rivojlanishi uchun mustahkam zamin yaratdi.

Ikkinchi bosqich: Hamkorlikning mustahkamlanishi va rivojlanishi (1993–1999 yillar) Bu davr O'zbekiston-Turkiya munosabatlarining "oltin davri" deb ataladi,

¹⁵ O'zbekiston mustaqilligini tan olgan ilk davlat bo'lganimizdan faxrlanamiz. Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'anning 2022-yil 29-30-mart kunlari O'zbekistonga rasmiy tashrifi chog'ida nutqidan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati. 29.03.2022. <https://president.uz/oz/lists/view/5530>

¹⁶ Turkiya "Buyuk Talaba Loyihasi" (Grand Student Project) doirasida O'zbekiston uchun 500 nafar talabaga stipendiya ajratilgan. TIKa 1992–2022 yillar faoliyat hisoboti (30-yillik maxsus nashr). <https://tika.gov.tr/en/publications/reports/>



chunki rahbarlar darajasidagi tashriflar soni keskin oshdi, huquqiy baza kengaydi va iqtisodiy-madaniy hamkorlik faollashdi. Ikki davlat rahbarlari o'zaro tashriflar orqali strategik sheriklikni mustahkamlashga harakat qildi. Rahbarlar darajasidagi quydagi tashriflar va siyosiy dialog bo'lib o'tdi:

1992-yil 20-22-oktyabr O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning Turkiyaga birinchi rasmiy tashrifi amalga oshirildi. Tashrif chog'ida Turkiya Prezidenti Turgut Ozal bilan uchrashuvda "Do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi deklaratsiya" imzolandi¹⁷. Bu hujjat ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarni strategik darajaga ko'tarishni maqsad qilgan edi.

1993-yil 21-23-aprel Turkiya Prezidenti Turgut Ozal O'zbekistonga tashrif buyurdi. Bu tashrifda madaniy va iqtisodiy hamkorlikning asosiy yo'nalishlari belgilandi. Qolaversa iyul oyida "Madaniy aloqalar to'g'risidagi hamkorlik bitimi" imzolandi. Ushbu bitim orqali O'zbekistonda turk ta'lim markazlari ochildi, turk tili kurslari tashkil etildi. 1994-yil Turkiya O'zbekistonga 1000 nafar talaba uchun stipendiya ajratdi va Toshkentda turk litseyi ochildi¹⁸.

1994-yil 25-27-may O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning ikkinchi tashrifi amalga oshirildi. Turkiya Bosh vaziri Tansu Chiller bilan uchrashuvda "Iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish to'g'risidagi bitim" imzolandi. Shu yili TIKa orqali 50 million dollarlik grant ajratdi¹⁹. Ushbu tashrifga javoban 1995-yil iyun oyida Turkiya Prezidenti Suleyman Demirelning O'zbekistonga rasmiy tashrifi amalga oshirildi. Tashrif natijasida "Ilmiy-texnikaviy hamkorlik to'g'risidagi bitim" imzolandi. Ushbu bitim ilm-fan, texnologiya va ta'lim sohasidagi loyihalarni moliyalashtirishni ko'zda tutdi.

1996-yil 8-may "Abadiy do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnoma" imzolandi. Bu hujjat 1991-yilgi protokolni almashtirib, munosabatlarni huquqiy jihatdan mustahkamlagan asosiy hujjat bo'ldi²⁰. Unda quydagilar nazarda tutilgan edi:

- Parlamentlararo aloqalar;
- Mahalliy hokimiyatlar o'rtasidagi hamkorlik;
- Sarmoya va mahsulotning erkin aylanishi;
- Xavfsizlik va mudofaa masalalari ko'rib chiqildi.
- Iqtisodiy va madaniy hamkorlikning rivojlanishi;

Turli sohadagi aloqalar bilan birgalikda savdo hajmi ham ortib bordi va 1993-yilda 78 million dollardan 1997-yilda 350 million dollarga yetdi. 1997-yil "Investitsiyalarni o'zaro himoya qilish to'g'risidagi bitim" imzolandi. Turkiya kompaniyalari O'zbekistonda 100 dan ortiq loyiha amalga oshirdi (to'qimachilik, qurilish, oziq-ovqat sanoati)²¹.

¹⁷ "Do'stlik va hamkorlik deklaratsiyasi". Turkiya Respublikasi Tahqi ishlar vazirligi. <https://www.mfa.gov.tr/relations-between-turkiye-and-uzbekistan.en.mfa>

¹⁸ O'zbekistondagi turk ta'lim markazlari va turk tili kurslarining rivoji. The Diplomat nashri. <https://thediplomat.com>.

¹⁹ TIKa 1994-yilda O'zbekistonga texnik va iqtisodiy yordam dasturlari. TIKa matbuot xizmati. <https://tika.gov.tr>.

²⁰ O'zbekiston Respublikasi va Turkiya Jumhuriyati o'rtasida "Abadiy do'stlik va hamkorlik to'g'risida shartnoma". O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/docs/-2591212>

²¹ 1990-yillarda turk kompaniyalarining O'zbekistondagi loyihalari. UzDaily nashri. <https://www.uzdaily.uz/en/uzbekistan-expands-industrial-partnerships-with-turkish-regions/>



Shunday qilib, 1993-1999 yillar ikki davlat o'rtasidagi eng faol hamkorlik davri bo'ldi va 20 dan ortiq bitim imzolandi, savdo 5 baravar oshdi, madaniy aloqalar chuqurlashdi. Biroq, siyosiy kelishmovchiliklar (ayniqsa, diniy ekstremizmga qarshi kurash masalalari) bu yutuqlarga ta'sir ko'rsatdi va uchinchi bosqich - turg'unlik davri boshlandi.

Uchinchi bosqich: Turg'unlik va tiklanish davri (2000–2016 yillar) Bu davr O'zbekiston-Turkiya munosabatlarining eng past nuqtasi bo'lib, 1999-yildagi siyosiy kelishmovchiliklar oqibatida rasmiy aloqalarda uzilishlar kuzatildi. Biroq, munosabatlar to'liq uzilmadi - asosan madaniy, gumanitar va nodavlat darajasida saqlanib qoldi. Turkiya "yumshoq kuch" (soft power) siyosati orqali ta'sirini yo'qotmadi, ammo rahbarlar darajasidagi tashriflar va yangi bitimlar deyarli yo'q edi. O'zbekistonning ichki xavfsizlik siyosati va Turkiyaning mintaqaviy ambitsiyalari bu sovuqlashishni chuqurlashtirdi. Shunga qaramasdan, 2014-2016 yillarda tiklanish belgilari paydo bo'ldi, bu esa keyingi bosqichga zamin yaratdi.

Sovuqlashishning asosiy sabablari va oqibatlarida diniy va siyosiy farqlar (2000-2005 yillar) asosiy rol o'ynadi. O'zbekiston hukumati 1999-yilgi terror voqealarini Turkiyada joylashgan "Fethullah Gülen harakati" (keyinchalik FETÖ deb e'lon qilingan) bilan bog'ladi. Natijada, 2000-yilda O'zbekiston Turkiyadagi barcha Gülen maktablarini yopdi va o'qituvchilarni mamlakatdan chiqarib yubordi. 2002-yilda savdo hajmi 1997-yildagi 350 million dollardan 120 million dollarga tushdi²².

Rasmiy tashriflarning to'xtashi ham ta'sir qiluvchi omil bo'ldi. 2000-2014 yillar oralig'ida hech qanday davlat rahbari darajasidagi tashrif bo'lmadi. Faqat vazirlar va parlament a'zolari darajasida cheklangan uchrashuvlar o'tkazildi. Madaniy va gumanitar sohada TIKA faoliyatini davom ettirdi: 2000-2010 yillarda 50 million dollardan ortiq grant ajratdi (infratuzilma, sog'liqni saqlash, ta'lim). Yunus Emre Instituti O'zbekistonda turk tili kurslari tashkil etdi. Turkiya stipendiyalari orqali yiliga 100-150 talaba Turkiyada o'qidi (xususi kanallar orqali)²³.

Iqtisodiy aloqalarda savdo past darajada bo'lsa-da, turk kompaniyalari faoliyatini to'xtatmadi. 2008-yilda Türk Telekom O'zbekistonda mobil aloqa loyihasida ishtirok etdi. 2012-yilda Turkiya eksporti O'zbekistonga 300 million dollarga yetdi (asosan to'qimachilik va mashinasozlik sohasida)²⁴.

Tiklanish belgilari 2014-2016 yillarda paydo bo'ldi. 2014-yilda O'zbekiston va Turkiya savdo muzokaralari ancha jonlandi. 2015-yilda O'zbekiston TIV rahbari Turkiyaga bordi va "sovuqlashishni yumshatish" haqida so'z yuritdi. 2017-yil oktyabrda Shavkat Mirziyoyev Prezident etib saylangach, xorijiy tashrif bilan Turkiyaga bordi.

²² O'zbekiston Respublikasi Tashqi savdo aylanmasi hisoboti. O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika agentligi. savdo statistikasi 2002. <https://stat.uz/uz/>

²³ Talabalar stipendiyasi. Turkiya YÖK hisoboti, 2010. <https://www.yok.gov.tr/en>

²⁴ Turkiya Savdo vazirligi, Eksport statistikasi 2012. <https://www.ticaret.gov.tr/>



Shunday qilib, 2000-2016 yillar rasmiy aloqalar muzlatilgan, lekin madaniy va iqtisodiy aloqalar past darajada saqlangan davr bo'ldi. 2014-2016 yillardagi tiklanish belgilari esa to'rtinchi bosqich - strategik sheriklikning boshlanishiga zamin yaratdi.

To'rtinchi bosqich: Yangi dinamizm va strategik sheriklik (2017-yildan hozirgacha) Bu bosqich O'zbekiston-Turkiya munosabatlarining eng faol va samarali davri bo'lib, O'zbekistonning ochiq tashqi siyosati va Turkiyaning mintaqaviy o'ziga xos strategiyasi natijasida shakllandi. O'zbekiston Prezident Shavkat Mirziyoyevning harakatlari bilan boshlangan islohotlar munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqdi: rasmiy tashriflar, yangi bitimlar va iqtisodiy loyihalar soni keskin oshdi. Ikki davlat rahbarlari o'rtasidagi shaxsiy do'stlik va muntazam uchrashuvlar bu jarayonni tezlashtirdi.

Natijada, munosabatlar 2022-yilda "keng qamrovli strategik sheriklik" darajasiga ko'tarildi, savdo-iqtisodiy hamkorlik kuchaydi va Turkiy Davlatlar Tashkiloti doirasida mintaqaviy integratsiya chuqurlashdi. 2024 yil savdo hajmi 2,93 milliard AQSH dollarga yetgan bo'lsa, 2025 yilning birinchi yarmida ikki davlat o'rtasidagi savdo aylanmasi 1,3 mlrd dollardan oshdi. Turkiya sarmoyalari esa 2017-yilga nisbatan 70 baravarga o'sdi.²⁵

2017-yil oktyabrda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkiyaga rasmiy tashrifi (1999-yildan beri birinchi marotaba) munosabatlarni yangilashning belgisiga aylandi. Tashrif chog'ida Erdog'an bilan uchrashuvda "Qo'shma deklaratsiya" imzolandi, unda hamkorlik strategik darajaga ko'tarilishi e'lon qilindi.²⁶ Bu hujjat savdo, mudofaa va madaniy aloqalarni rivojlantirishni ko'zda tutdi. Shu yili Iqtisodiy Komissiya yig'ilishlari qayta tiklandi, 2018-yilda esa "Oliy darajadagi Strategik Hamkorlik Kengashi" tashkil etildi, bu ikki yilda bir marta o'tkaziladigan forum bo'ldi.

Keyingi yillarda tashriflar muntazam amala oshirila boshlandi. Xususan 2018-yil aprelda Erdog'annning Toshkentga tashrifi natijasida savdo va harbiy hamkorlik bo'yicha bitimlar imzolandi. 2020-yil fevralda Mirziyoyevning ikkinchi tashrifi chog'ida Kengashning birinchi yig'ilishi o'tkazildi, unda iqtisodiy islohotlar va investitsiyalar muhokama qilindi. Xususan, O'zbekistonda turk sarmoyasi ishtirokidagi 1,3 mingdan ortiq korxona faoliyat yuritayotganligi, 500 million dollarlik investitsiya loyihalari amalga oshirilganligi, avtomobil transportida yuk tashish hajmi 33 foizga, temir yo'lda 17 foizga, havo transportida 42 foizga o'sganligi va 2019-yilda O'zbekistonga 64 ming turkiyalik sayyoh tashrif buyurganligi ta'kidlandi.²⁷

2022-yil martda Erdog'annning Toshkentga ikki kunlik tashrifi muhim burilish bo'ldi: munosabatlar strategik sheriklik darajasiga ko'tarildi va 10 ta hujjat imzolandi, jumladan, imtiyozli savdo bitimi va harbiy-mudofaa hamkorligi bo'yicha asosiy kelishuv. Bu tashrifda Erdog'an O'zbekistonning yangi termal elektr stansiyasini ishga

²⁵ O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasi. O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika agentligi. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/59511>.

²⁶ O'zbekiston - Turkiya: hamkorlikning yangi bosqichi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati. 25.10.2017. <https://president.uz/oz/lists/view/1175>

²⁷ O'zbekiston va Turkiya yangi formatdagi muloqotni boshladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati. 19.02.2020. <https://president.uz/en/lists/view/3367>.



tushirish marosimida ishtirok etdi. 2024-yil iyunda Anqarada Kengashning uchinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi, unda savdo-iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirish bo'yicha "Qo'shma deklaratsiya" imzolandi. 2025-yil yanvarda Anqarada Turkiya-O'zbekiston-Ozarbayjon uch tomonlama uchrashuvi bo'lib o'tdi, unda "Anqara deklaratsiyasi" qabul qilindi, bu O'rta yo'lak (Middle Corridor) va Trans-Afg'on temir yo'li loyihalarini rivojlantirishga qaratilgan edi²⁸.

Iqtisodiy hamkorlik va investitsiyalar bosqichida iqtisodiy o'sish eng tez bo'ldi. Turkiya sarmoyalari 2017-yildagi 20 million dollardan 2025-yilda 3,5 milliard dollarga ko'tarildi, 100 dan ortiq loyiha amalga oshirilmoqda, jumladan, Cengiz Holding, Aksa Energy, Çalık Holding, Akay İnşaat, Anadolu Group va Eczacıbaşı Holding tomonidan energetika, qurilish va sanoat sohasidagi 10 milliard dollarlik portfel shakllantirildi. 2024-yilda qo'shma korxonalar soni ikki baravar ko'paydi. Maqsad 2030-yilga qadar savdoni 10 milliard dollarga yetkazish²⁹.

Madaniy-gumanitar va boshqa yo'nalishlarda Turkiya bir qator loyihalari orqali ta'sirini oshirmoqda. Misol uchun Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilning yanvar-may oylarida O'zbekistonning jami 88,6 ming fuqarosi turizm maqsadida Turkiyaga sayohat qilgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 24,7 ming kishiga yoki 38,7 foizga oshgan.³⁰ Turk tili markazlari orqali turk tili kurslari kengaydi, yillik 2000 stipendiya ajratilmoqda. 2024-yilda "O'zbekiston madaniy kunlari" Anqara va Istanbulda o'tkazildi.

Shunday qilib, 2017-yildan hozirgacha bo'lgan bosqich munosabatlarni strategik sheriklikka aylandi: siyosiy ishonch tiklandi, iqtisodiy o'sish ta'minlandi va mintaqaviy integratsiya kuchaydi. Bu jarayon O'zbekistonning "O'zbekiston-2030" strategiyasi va Turkiyaning Yevroosiyo ambitsiyalari bilan uyg'unlashgan holda, ikki davlatning global rolini oshiradi. Kelajakda savdo 5-10 milliard dollarga yetishi va yangi sohalarda (raqamli texnologiyalar, ekologiya) hamkorlik kengayishi kutilmoqda.

XULOSA

O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi diplomatik aloqalar qardoshlik ruhida mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab izchil rivojlanib, tarixiy yaqinlik va o'zaro manfaatlar asosida mustahkamlandi. Mustaqillikni e'tirof etish va diplomatik aloqalarni o'rnatish bosqichidan boshlab, hamkorlikning oltin davri, sovuqlashish va tiklanish davri orqali o'tib, bugungi strategik sheriklik bosqichiga yetdi. Bu jarayon nafaqat siyosiy ishonch va iqtisodiy integratsiyani ta'minladi, balki madaniy-gumanitar aloqalar va mintaqaviy hamkorlikni ham chuqurlashtirdi.

Huquqiy asos sifatida imzolangan shartnomalar va bitimlar ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarni xalqaro huquq normalariga mos ravishda mustahkamlagan bo'lib, savdo, mudofaa, ta'lim va transport sohalarda barqaror rivojlanishga zamin yaratdi.

²⁸ Anqara deklaratsiyasi Ozarbayjon, Turkiya va O'zbekiston o'rtasidagi uch tomonlama hamkorlikni mustahkamlaydi. Azernews nashri.29.01.2025. <https://www.azernews.az/nation/237098>.

²⁹ O'zbekiston Iqtisodiyot vazirligi "2030 yilga qadar savdo prognozi". 2023. <https://economy.gov.uz/uz/news>

³⁰ Turkiyaga sayyohlik maqsadida 67 mingdan ortiq o'zbekistonlik sayohat qilgan. O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika agentligi. <https://stat.uz/en/press-center/news-of-committee/62915>.



Turkiy Davlatlar Tashkiloti doirasidagi hamkorlik esa bu aloqalarni mintaqaviy miqyosga olib chiqib, turkiy dunyoning birligi va barqarorligiga hissa qo'shmoqda.

Natijada, O'zbekiston-Turkiya munosabatlari nafaqat ikki tomonlama manfaatlar uchun, balki butun Markaziy Osiyo va Turkiya mintaqasining iqtisodiy va madaniy rivojlanishi uchun muhim strategik ahamiyatga ega. Kelajakda bu sheriklik yanada kengayib, yangi sohalarda - raqamli iqtisodiyot, yashil energiya va innovatsiyalarda - hamkorlikni rivojlantirib, ikki xalqning farovonligi va mintaqaviy barqarorlikni ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 3-iyunda Turkiya Respublikasiga rasmiy tashrifi chog'ida Anqarada o'tkazilgan O'zbekiston - Turkiya yuqori darajadagi strategik hamkorlik kengashining ikkinchi yig'ilishidagi nutqidan. Manba. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy sayti. <https://www.meb.gov.tr>
2. O'zbekiston - Turkiya "keng qamrovli strategik sheriklik" o'rnatish to'g'risida. UZDAILY rasmiy sahifasi. Manba. <https://www.uzdaily.uz/>
3. Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'anning 2022-yil 29-30-mart kunlari O'zbekistonga rasmiy tashrifi chog'ida, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bilan o'tkazgan matbuot anjumanidagi nutqidan
4. TIKA 30-yillik faoliyat hisoboti. Manba. Turkiya Hamkorlik va Muvofiqlashtirish Agentligi
5. Do'stlik va hamkorlik deklaratsiyasi (1992, 22-oktyabr). Manba. Turkiya Respublikasi Prezidentligi davlat arxivi.
6. 1994 yilda Turkiya O'zbekistonga 1000 ta stipendiya o'rnini ajratdi. Shu yil Toshkentda Turkiyaning xorijdagi birinchi turk maktabi bo'lgan Toshkent Turk Lisesi 1 sentyabr 1994 yilda ta'lim faoliyatini boshladi. Manba. Türkiye Maarif Vakfi
7. O'zbekiston Respublikasi va Turkiya Jumhuriyati o'rtasida "Abadiy do'stlik va hamkorlik to'g'risida shartnoma". O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/>
8. 1990-yillarda turk kompaniyalarining O'zbekistondagi loyihalari. UzDaily nashri. <https://www.uzdaily.uz/en/uzbekistan-expands-industrial-partnerships-with-turkish-regions/>
9. O'zbekiston Respublikasi Tashqi savdo aylanmasi hisoboti. O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika agentligi. savdo statistikasi 2002. <https://stat.uz/uz/>
10. Turkiya Savdo vazirligi rasmiy sahifasi, Eksport statistikasi 2012.
11. Turkiy Davlatlar Tashkiloti doirasida mintaqaviy integratsiya chuqurlash bo'yicha hamkorlik hujjatlardan. Manba. <https://turkic.world/en>
12. O'zbekiston - Turkiya "Qo'shma Deklaratsiya" qabul qilish bo'yicha uchrashuvdan. 2017 Manba. <https://diplomacybeyond.com>



13. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil fevralda Turkiya Respublikasiga rasmiy tashrifidan. Manba. <https://www.eurasian-research.org/>

14. Anqara deklaratsiyasi Ozarbayjon, Turkiya va O'zbekiston o'rtasidagi uch tomonlama hamkorlikni mustahkamlaydi. Azernews nashri. 29.01.2025. <https://www.azernews.az>.

15. O'zbekiston iqtisodiy prognozi 2030 (2023). Manba. O'zbekiston Iqtisodiyot va moliya vazirligi.

16. Turkiyaga sayyohlik maqsadida 67 mingdan ortiq o'zbekistonlik sayohat qilgan. O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika agentligi. <https://stat.uz/en/press-center/news-of-committee/62915>.